




**YARIM AVTOMAT KIR YUVISH MASHINASI**

**FOYDALANISH YO'RIQNOMASI  
VA KAFOLAT TALONI**



**BRWM-TT8**

**Iltilimos, ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing.**



## Mundarija

Umumiy ko'rsatmalar . . . . .	3
Xavfsizlik qoidalari . . . . .	4
Yetkazib berish komplektatsiyasi . . . . .	6
Asosiy texnik tavsif va talablar. . . . .	7
O'rnatish va yoqish . . . . .	8
Kir yuvish jarayoni . . . . .	10
Kir yuvish bo'yicha kerakli ma'lumotlar . . . . .	11
Qo'shimcha ma'lumotlar . . . . .	11
Kir yuvish jarayonida ish tartibi . . . . .	12
Kirni siqish jarayoni . . . . .	12
Kir yuvishni yakunlash . . . . .	13
Texnik xizmat ko'rsatish . . . . .	13
Ogohlantirish . . . . .	13
Nosozlikni aniqlash bo'yicha qo'llanma . . . . .	14
Utilizatsiya qilish . . . . .	15
Kafolat shartlari . . . . .	16
Kafolat taloni . . . . .	19
Servis xizmati . . . . .	20

## Umumiy ko'rsatmalar

\* Yarim avtomat kir yuvish mashinasi (keyingi o'rinlarda - mashina)ni sotib olayotganingizda kafolat talonining to'g'ri to'ldirilganligi va unda sotuvchi tashkilot muhri hamda sotib olingan sana mavjudligini tekshiring.

\* Mashinaning butligi va tashqi shikastlanishlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

\* Foydalanish bo'yicha yo'riqnoma turli modeldagi mashinalar uchun ishlab chiqilgan.

\* Foydalanish bo'yicha yo'riqnomada mashinani boshqarish va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Konstruktiv tuzilishiga ko'ra modellardan foydalanish o'zaro farqlanadi.

### DIQQAT!

**Binodagi havo haroratining 0°C dan tushib ketishi mashinadagi suvning muzlashiga va mashinaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi mashina tuzilishi va ishlash sifatini takomillashtirish ustida tinimsiz ish olib borib, mashinaning texnik tavsiflarini o'zgartirmagan holda mashina tuzilishi va uning tarkibini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.**

**Mashina transportirovka qilingandan keyin atrofdagi havo haroratida 24 soat saqlanishi lozim.**

### DIQQAT!

**Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) (shuningdek kafolat muddati mobaynida) saqlash yoki foydalanish qoidalarini buzish, yoxud yengib bo'lmas kuch (yong'in, ommaviy tartibsizlik va boshqa) ta'sirida, uy hayvonlari, hashorat va kemiruvchilar tomonidan zarar yetkazilishi natijasidagi shikastlanish va nuqsonlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.**

## XAVFSIZLIK QOIDALARI

\* Mazkur mashina - maishiy elektr jihoz bo'lganligi sababli undan foydalanishda elektr xavfsizligi umumiy talablariga rioya qilish lozim. Mashina elektr tokidan shikastlanishdan himoyalanganligiga ko'ra I toifaga mansub.




\* Jihozdan jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlari cheklangan shaxslar (shu jumladan bolalar) foydalanishlari maqsadga muvofiq emas, agar ularning xavfsizligi uchun mas'ul shaxs nazorati yoki ko'rsatmasi bilan foydalanilgan hollar bundan mustasno.

\* Bolalarning mashina bilan o'ynashlariga yo'l qo'yilmasligi nazorat qilinishi lozim.

\* Bolalarning mashinaning ustiga chiqishlari, uning ustida yoki ichida o'ynashlariga yo'l qo'ymang.

\* Qadoqlangan material xavf tug'dirishi mumkinligi sababli barcha qadoqlangan materiallarni bolalardan uzoqda saqlang.




\* Mashinani yoqishga mo'ljallangan yerga ulangan ikki qutbli rozetka favqulodda holatlarda mashinani elektr tarmog'idan uzishga qulay joyga o'rnatilishi lozim.

\* Mashinani elektr tarmog'iga ulashdan avval ta'minot shnurida shikastlanish mavjud emasligini tekshirish lozim. Shnur bukilmagan, tekis holatda bo'lishi kerak.


\* Ta'minot shnuri shikastlangan hollarda, xavfsizlik nuqtai nazaridan, uni almashtirish ishlab chiqaruvchi, servis xizmati yoki shunga o'xshash xizmatning malakali mutaxasisi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

\* Zaharli gazlar ajralib chiqishi, mashinaning buzilishi, yong'in yoki portlash kelib chiqishi xavfi mavjudligi sababli mashinadan foydalanishda turli eritmalardan foydalanish ta'qiqlanadi.





\* 50°C dan yuqori haroratdagi suvdan foydalanish ta'qiqlanadi. Bu kir yuvish mashinasi plastmas detallari shakli o'zgarishiga yoki uning normal ishlashiga zarar yetkazishi mumkin.




\* Mashinani yoqish uchun elektr tarmog'iga ulanishda o'tkazuvchi, ko'p o'rinli (Ikki yoki undan ortiq ulanuvchi) rozetka va uzaytirilgan shnurlardan foydalanish ta'qiqlanadi.



\* Mashinani o'chirishda shnurdan tortib elektr tarmog'idan uzish ta'qiqlanadi.

\* Shnurni rozetkaga ulash va undan uzish, shuningdek ishlayotgan mashinaga ho'l qo'l bilan tegish ta'qiqlanadi.




\* Suv oqib turgan holatda mashinada kir yuvish ta'qiqlanadi.

\* Mashinani mustaqil ta'mirlash va uning tuzilishi hamda suv va elektr ta'minotiga o'zgartirish kiritish ta'qiqlanadi, aks holda bu mashinaning jiddiy shikastlanishiga va kafolatli ta'mirlash huquqining bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

\* Mashinani ta'mirlash faqat servis xizmatining malakali mutaxasisi tomonidan amalga oshirilishi lozim, shuningdek malakali amalga oshirilmagan ta'mirlash xavf keltirib chiqarishi mumkin.

\* Mashinada elektr qismlaridagi shovqin, tutun chiqishi bilan bog'liq va boshqa turdagi nosozlik aniqlangan hollarda mashinani rozetkadan elektr ta'minoti qutusi orqali zudlik bilan elektr tarmog'idan uzish, servis xizmati mutaxasisiga murojat qilish lozim.

\* Suv toshishi va mashinaning sinishini oldini olish maqsadida yuvish bakini belgilangan maksimal darajadan ortiq miqdordagi suv bilan to'ldirish ta'qiqlanadi.



\* Mashinani suv ta'minotiga ulashda faqatgina mahsulot yetkazish komplektiga kiruvchi yangi suv shlangidan foydalanish lozim.

Eski shlangdan foydalanishga yo'l qo'yilmaslik lozim.

\* Mashina tekstil mahsulotlarini sintetik yuvish vositalarini qo'llash bilan maishiy sharoitda yuvish, shuningdek, chayqash va siqish uchun mo'ljallangan.

\* Mashina faqat maishiy foydalanish uchun mo'ljallangan. Mashina ishlab chiqarish maqsadlarida (restoranda, kafeda, ofisda, bolalar bog'chasida, sanatoriyada va boshqalarda ) foydalanilganda kafolat majburiyatlari amalga oshirilmaydi.

\* Mashinadan foydalanishda quyidagilarga rioya etilishi lozim:

-atrof-muhit harorati  $25^{\circ} \pm 10^{\circ}\text{C}$  va nisbiy namlikning 75% dan ortiq bo'lmasligi; - suvoqova bosimi 0.05 dan 1 MPa gacha;

-bir fazali elektr tarmog'idagi o'zgaruvchan tok chastotasi ( $50 \pm 1$ ) Hz;


-elektr tarmog'idagi o'zgaruvchan tok kuchlanishi 220 ( $\pm 10\%$ ) V.

## Yetkazib berish komplektatsiyasi

Tarkibiy qismlar	Nomlanishi	BRWM-TT8 uchun tegishli miqdor (dona):
Asosiy buyum	Yarim avtomat kir yuvish mashinasi	1
	Siqish bakining himoya qopqog'i	1
	Suv shlangi	1
Foydalanish hujjati	Yoydalanish bo'yicha yo'riqnomasi	1

## Asosiy texnik tavsif va talablar

Parametrlar / Modellar	BRWM-TT8
Kir yuvishdagi eng yuqori hajm (quruq holda) kg	8
Kirni siqishdagi maksimal hajm kg	5,2
Kuchlanish V	220
Chastota Hz	50
Kir yuvish uchun zaruriy quvvat W	300
Kir siqish uchun zaruriy quvvat W	170
Suv nasosining quvatti W	30
Kir yuvishning maksimal vaqti min.	15
Kir siqishning maksimal vaqti min.	5
Suvning maksimal harorati °C	55
Suvning zaruriy bosimi Mpa	0,2
Og'irligi kg	27
Kenglik mm	770
Chuqurlik mm	435
Balandlik mm	970




Siqish baxining himoya qopqog'i



Suv kirish shlangi





## O'rnatish va yoqish

Mashinani o'rnatish uchun mo'ljallangan joyda qor, yomg'ir, yuqori namlik ta'sir ko'rsatmasligi lozim, aks holda bu tok urishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, kir yuvish mashinasiga to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushishiga yo'l qo'yilmasligi lozim, bu plastik qismlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Kir yuvish mashinasi yaqinida elektr isitish jihozlari, isitish tizimi, yoqilgan sham yoki sigareta va boshqa uchqun chiqarishi mumkin bo'lgan jismlar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bu plastik qismlarning shikastlanishi yoki yong'in kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Benzin, benzol, suyuqliklar singari uchuvchi moddalardan foydalanish mumkin emas.

Kir yuvish baki ichida oqartiruvchi vosita singari ishqor moddalar qoldirilishi mumkin emas.

Bu plastik va rezina detallar ustki qismining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Kir yuvish mashinasini tik holatda joylashtirilishi lozim.

Kir yuvish mashinasini noto'g'ri o'rnatilishi kuchli shovqin va shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

Polning devor oralig'idagi tekis va qattiq sathini 100 mm dan ko'proq miqdorda taminlash lozim, aks holda, shovqin va tebranish kelib chiqadi.

Kir yuvish mashinasini vilkaga qulay holatda joylashtirilishi kerak.

Mashinaning ostki qismida elektr dvigatelni sovutish ventilyasiyasi mavjudligi sababli uni gilam ustiga joylashtirish mumkin emas.

Kir yuvish mashinasining noto'g'ri o'rnatilganligi kuchli shovqin va shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

Kir yuvish mashinasiga suyanmang, undan taglik, ustuncha sifatida foydalanmang.

Nasos mavjud bo'lgan modelda suv shlangi kir yuvish mashinasining tubidan hisoblaganda 100 sm dan uzun bo'lmasligi kerak.

Kir yuvish bakining shikastlanishini oldini olish maqsadida kiyimlarni yuvishdan oldin uning ichidagi har qanday predmetlar chiqarib tashlanishi kerak.

Suv oqimini o'zgartirish dastagi mavjud bo'lganda u bir vaqtning o'zida kir yuvish baki va siqish bakiga suv quyish uchun ortida joylashgan bo'lmasligi lozim. Dastakni kuch bilan bosmang, bu suv oqimini o'zgartirish dastagi sinishiga olib kelishi mumkin.

Boshqaruv paneli dastagini faqat yo'nalish bo'yicha aylantiring, boshqaruv panelining dastagi va elektromexanik qismlarini sinishini oldini olish uchun, boshqaruv paneli dastagini belgilangan ko'rsatkichidan ortiq burmang.

Elektr tarmog'iga ulang.

Kir yuvish bakiga suv kelib tushishi uchun oqova suv jo'mragiga suv shlangini ulang. Nasosli yarim avtomat kir yuvish mashinasi suv shlangini 100 sm dan ortiq bo'lmagan balandlikdagi vanna yoki rakovina bortiga buklanishlarsiz ulang. Nasossiz modellar uchun suv shlangi kir yuvish mashinasi tubidan past bo'lmagan hamda buklanishlarsiz joylashishi lozim.

Kiyimlar va kir yuvish baki ichki qismida tanga, to'nog'ich, chang yoki qum va shu kabi boshqa predmetlar yo'qligini tekshiring.

Kir yuvish mashinasiga maksimal darajadan ko'p bo'lmagan miqdordagi suv bilan to'ldiring.

## Kir yuvish jarayoni

Kir yuvish uchun kiyimlarni tarkibi, ifloslanganlik darajasi va rangiga qarab ajrating.

Kir yuvish yoki chayqash vaqtini «5», «10» va «15» daqiqa tanlangandan so'ng dastakni belgilangan chegaradan ortiq burmang.

Kir yuvishning "Oddiy mato" va "Mayin mato" rejimlaridan birini tanlang.

Kir yuvish rejimi tanlangandan so'ng dastakni belgilangan chegaradan ortiq buramang, sensor boshqaruvli modellarda tugmani belgilangan ko'rsatkichdan ko'p bosmang. Kir yuvish rejimi kiyimning turi, miqdori (kiyim hajmi quyidagi jadvalda belgilangan) va ifloslanganligi darajasiga ko'ra tanlanadi.

Natija qoniqarli bo'lmagan hollarda kir yuvish jarayonini takrorlang. Kir yuvish bakidan quyidagi jadvalda belgilangan miqdorga mos ravishda kirni siqish bakiga kiyimlarni o'tkazing, rejim tanlash dastagidan suvni to'kish pozitsiyasini tanlang. Kiyimlar ustidan kirni siqish bakining himoya qopqog'ini yoping. Kirni siqish vaqtini chayqash uchun maksimal «5» daqiqaga belgilang. Kerakli rejim tanlangandan so'ng dastakni belgilangan chegaradan ortiq burmang. Sensor boshqaruvli modellarda tugmani belgilangan ko'rsatkichdan ko'p bosmang.

Suvni kirni siqish bakiga yo'naltirib ulang. Chayqash tugagandan so'ng suvni o'chiring va kirni siqish vaqtini maksimal «5» daqiqa belgilang, kerakli rejim tanlangandan so'ng dastakni belgilangan chegaradan ortiq buramang. Sensor boshqaruvli modellarda tugmani belgilangan ko'rsatkichdan ko'p bosmang.

Natija qoniqarli bo'lmagan hollarda kirni siqish jarayonini takrorlang.





Siqish to'xtagandan so'ng kiyimlarni bakdan chiqarib oling.

«**Mayin mato**» funksiyasi 40°C li suvda 15 daqiqa, har biri 3 daqiqa davom etadigan ikki marta kirni siqish; sovuq suv harorati 20°C sharoitda 5 daqiqa davomida bir marta kirni chayish, har biri 4 daqiqa davom etadigan ikki marta kirni siqish.

## Kir yuvish bo'yicha kerakli ma'lumotlar:

Mato turi	Kir yuvish rejimi	Kir yuvish vaqti daqiqa	Suv miqdori L	Kir yuvish kukuni miqdori gr
Sintetika	Mayin mato / Oddiy yuvish	2 - 5	30	30
Shoyi	Mayin mato/Oddiy yuvish	2 - 5	30	30
Jun gazlama	Mayin mato / Oddiy yuvish	2 - 10	30	30
Trikotaj	Mayin mato / Oddiy yuvish	2 - 10	30	30
Paxta va zig'ir tola	Oddiy yuvish	5 - 15	40	40
Juda chang paxta va zig'ir tola	Mayin mato	10 - 20	50	50

## Qo'shimcha ma'lumotlar:





Kiyim/Og'irligi	Ko'ylak taxminan 500 gr	Maxsus forma taxminan 650 gr	Jinsi taxminan 900 gr	Pidjak taxminan 1600gr
				
2,0 kg	4 dona	3 dona	2 dona	1 dona
3,0 kg	6 dona	4 dona	3 dona	1 dona
3,5 kg	7 dona	5 dona	4 dona	2 dona
4,5 kg	9 dona	6 dona	5 dona	2 dona
5,0 kg	10 dona	7 dona	5 dona	3 dona
5,5 kg	11 dona	8 dona	6 dona	3 dona
6,0 kg	12 dona	9 dona	6 dona	3 dona
7,0 kg	14 dona	10 dona	7 dona	4 dona
8,0 kg	16 dona	12 dona	8 dona	5 dona

Kiyim miqdorining kir yuvish uchun quyilgan suv miqdoriga nomutanosibligi kiyimlarning shikastlanishi hamda suvning to'kilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Yuvilishi lozim bo'lgan kiyim hajmi uning turi, o'lchami va matoning zichligiga qarab o'zgarishi mumkin. Kir yuvish bakida kiyimlarning harakatlanishini diqqat bilan kuzatish orqali kerakli o'zgartirishlarni amalga oshirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan raqamlar mo'ljal olish uchun keltirilgan, haqiqiy og'irlik yuvilayotgan kiyimga bog'liq. Kiyimning miqdori yarim avtomat kir yuvish mashinasining texnik imkoniyatlaridan ortib ketishi mumkin emas.

### Kirni siqish jarayoni

<p><b>1</b> Kiyimni yoying va uni siqish kamerasiga joylashtiring</p>	<p><b>2</b> Siqish bakining himoya qopqog'ini kiyim ustiga joylashtiring. Qopqoqning gorizontal ekanligiga ishonch hosil qiling</p>																
	 <p style="text-align: center;">Siqish bakining himoya qopqog'i</p> <p style="text-align: center;">Kamera devori</p> <p style="text-align: center;"><b>To'g'ri</b>                      <b>Noto'g'ri</b></p>																
<p><b>3</b> Siqish bakining qopqog'ini va ichki qopqog'ini yoping</p>	<p><b>4</b> Siqish vaqtini tanlash uchun quyidagi jadvalga qarang</p>																
 <p>Siqish bakining qopqog'i</p> <p>Siqish bakining ichki qopqog'i</p>	<table border="1"> <thead> <tr> <th>Yuviladigan matolar</th> <th>Siqish vaqti (daqiqqa)</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Shoyi</td> <td>1</td> </tr> <tr> <td>Yengil kiyim tola/aralash</td> <td>1</td> </tr> <tr> <td>Trikotaj maxsulotlari tola</td> <td>1-2</td> </tr> <tr> <td>Ichki kiyim (paxta)</td> <td>2-3</td> </tr> <tr> <td>Poluver (paxta va zig'ir tola)</td> <td>3-4</td> </tr> <tr> <td>Sochiqbop mato (paxtadan chiqarilgan ip gazlama)</td> <td>5</td> </tr> </tbody> </table>		Yuviladigan matolar	Siqish vaqti (daqiqqa)	Shoyi	1	Yengil kiyim tola/aralash	1	Trikotaj maxsulotlari tola	1-2	Ichki kiyim (paxta)	2-3	Poluver (paxta va zig'ir tola)	3-4	Sochiqbop mato (paxtadan chiqarilgan ip gazlama)	5	<p style="text-align: center;"><b>Siqish vaqti</b></p> 
Yuviladigan matolar	Siqish vaqti (daqiqqa)																
Shoyi	1																
Yengil kiyim tola/aralash	1																
Trikotaj maxsulotlari tola	1-2																
Ichki kiyim (paxta)	2-3																
Poluver (paxta va zig'ir tola)	3-4																
Sochiqbop mato (paxtadan chiqarilgan ip gazlama)	5																



## Ogohlantirish

Jihozdan bolalar hamda jismoniy, aqliy imkoniyatlari cheklangan yoxud yetarli malaka va ko'nikmaga ega bo'lmagan shaxslar foydalanishi mumkin emas.
Kiyimlarni kirni siqish bakining ichki himoya qopqog'ini o'rnatmasdan siqish mumkin emas.
Kir yuvish yoki kirni siqish bakiga suv to'ldirilayotganda suv yo'nalishini o'zgartirish mumkin emas.
Kirni siqish va suvni to'kish funksiyalarini birgalikda ishlatish uchun kirni siqish funksiyasini suvni to'kishdan 1 daqiqa oldin amalga oshiring.
Kiyimga zarar yetmasligi va noodatiy tebranishlar yuz bermasligi uchun suv o'tkazmaydigan buyum yoki kiyimlarni yuvmang va siqmang.
Agar kirni siqish jarayonida kuchli tebranish yuz bersa kirni siqish vaqtini "0"ga o'tkazing va qopqoqni ochib, kiyimlarni bir tekisda joylashtiring va kirni siqishni davom ettiring.
Agar kirni siqish baki qopqoq ochilganidan keyin 15 soniya davomida to'xtamas, bu tormoz tizimi ishlamayotganligini bildiradi. Bunday holda mashinani ishlatishni darhol to'xtating va servis markaziga murojat qiling.

## KIR YUVISHNI YAKUNLASH


- Kiyimlarni siqish bakidan oling va uning qopqog'ini yoping.
- Agar kir yuvish bakida suv qolgan bo'lsa, uni to'kib yuborish uchun dastakni "Suvni bo'shatish" pozitsiyasiga o'tkazing.
- Rozetkadan ta'minot shnurini chiqaring.
- Kir yuvish mashinasida qolgan namlikni yaxshilab artib tozalang.

## TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Har qanday texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirishdan avva ta'minot shnuri rozetkadan uzilganligiga ishonch hosil qiling.</li> <li>- Agar kir yuvish mashinasi ifloslansa uni kuchli bo'lmagan suyuq yuvuvchi vosita bilan tozalash mumkin. Benzin yoki mashinalarni yuvish uchun eritma kabi kimyoviy tozalash vositalari va qattiq moddalardan foydalanmang, bu bo'yalgan sathga hamda plastik detallarga shikast yetkazishi mumkin.</li> </ul>
	<p>Filtrni tozalash:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Filtrni chiqaring;</li> <li>- Uni tozalab, oqar suvda yuving;</li> <li>- Uni ovozi belgi beradigan holda, o'z o'rniga o'rnatang.</li> </ul>

<b>Nosozlik turi</b>	<b>Sababi</b>
Kir yuvish mashinasi ishlamasligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Elektr ta'minotini tekshiring;</li> <li>• Vilkaning rozetkaga zich kirganligini tekshiring;</li> </ul>
Drenaj shlangi orqali suv chiqmasa	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Drenaj shlangining markaziy kanalizatsiyaga to'g'ri va ishonchli tarzda ulanganligiga ishonch hosil qiling;</li> <li>• Suv kirish shlangidan suv yerga tushmayotganiga ishonch hosil qiling;</li> <li>• Agar kir yuvish mashinasidan, shlanglar to'g'ri o'rnatilgan xolatda suv o'qishi kuzatilsa, mashinani ishlatishni darhol to'xtatib, servis markaziga murojaat qiling;</li> </ul>
Suvning oqib ketmasligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Suv shlangi juda ham yuqori joylashmaganligini tekshiring;</li> <li>• Suv shlangida suvning muzlab qolmaganligini tekshiring;</li> <li>• Suv shlangiga begona predmet tiqilib qolmaganligini tekshiring;</li> <li>• Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar bo'lmasa, kir yuvish mashinasini o'chiring va nasosni tozalash uchun servis markazining mutaxassislariga murojat qiling;</li> </ul>
Kir yuvish paytidagi noodatiy shovqin	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kir yuvish bo'lmasiga tanga yoki boshqa begona jismlar tushib ketmaganligini tekshiring;</li> </ul>
Kir siqish paytidagi shovqin va ichki tebranish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kir yuvish mashinasi tekis, qattiq pol ustida joylashganligini tekshiring;</li> <li>• Kirni siqish bakida kiyimlar to'g'ri joylashtirilganligini tekshiring;</li> </ul>

## UTILIZATSIYA QILISH



Mahsulot o'rani qayta ishlash, saqlash uchun maxsus poligonlarda joylashtirish va utilizatsiya qilishda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ekologik toza materiallardan tayyorlangan.

O'ramdagi mahsulotlar tegishli yorliqqa ega.

Mahsulotdagi yoki o'ramdagi belgi uning maishiy chiqindi sifatida utilizatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

Mahsulot utilizatsiya qilinishi uchun elektr jihozlarini utilizatsiya qilishga mo'ljallangan tegishli punktlarga topshirilishi lozim. Mahsulotni utilizatsiya qilish

qoidalariga rioya etib, siz bu kabi mahsulotlarni

utilizatsiya qilishning qoidalariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan atrof-muhitga hamda odamlar sog'lig'iga zarar yetishining oldini olishga xizmat qilasiz.

**DIQQAT!**

Iste'molchi tomonidan yarim-avtomat kir yuvish mashinasiga quyidagi shikastlar yetkazilganda:

Buyumlarni uloqtirish, ustiga og'ir yuk qo'yish, tushirib yuborish, oyna qismiga shikast yetkazish, 55 daraja haroratdan yuqori suvdan foydalanish, yuqori issiqlik manbaiga yaqin joyda saqlash (isitgichga yaqin masofada saqlash), plastmassa korpusiga ziyon yetkazadigan har xil kimyoviy vositalardan foydalanish (yonuvchi, erituvchi moddalar).

Ekspluatatsiya shartlari buzilgan hisoblanadi, shu sababli yarim-avtomat kir yuvish mashinasiga **kafolat o'z kuchini yo'qotadi** va mashinani sozlash uchun ketadigan barcha xarajatlar iste'molchi tomonidan to'liq qoplanadi.



### Hurmatli xaridor!

"BRANDO" savdo belgisi ostida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonada Sizni to'g'ri tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiradi. Biz Sizing talab va ehtiyojlaringizdan kelib chiqib mahsulotlarimiz sifat darajasini standart talablariga javob bera olishiga erishdik va sifat darajasini tasdiqlash maqsadida mahsulotlarga to'liq kafolat muddatlari joriy qilindi.

### Asosiy tushunchalar

**Mahsulot** - ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsuli.

**Kafolat Muddati** - mahsulotdan foydalanishning normativ muddati (oy hisobida belgilanadi) yoki mahsulotning muayyan vazifani (necha soatda, necha ish jarayonida va h.k.) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddat bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti mahsulotni ishlatish qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, mahsulotning sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

**Xizmat muddati** - mahsulotdan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, mahsulotning texnik holatidan qat'iyl nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

**Yaroqsiz kafolat taloni** - qalbaki muhr va imzolardan foydalanilgan, o'zboshimchalik bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, 2/3 (uchdan ikki) qismdan ko'p qismi mavjud bo'lmagan kafolat taloni yaroqsiz hisoblanadi.

### Mahsulotlarning kafolat va xizmat muddatlari

1. Mahsulotlar foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq ishlatilganda, "BRANDO" savdo belgisi ostida, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zining maishiy texnika mahsulotlariga quyidagicha xizmat muddatini belgilaydi: Xizmat muddati tugagandan so'ng mahsulotni xizmat ko'rsatish markaziga profilaktika va maslahat olish uchun olib borish tavsiya qilinadi.

2. "BRANDO" savdo belgisi ostida ishlab chiqarilgan Yarim Avtomat kir yuvish mashina mahsuloti uchun kafolat muddati 36 oyni tashkil qiladi. Kafolat muddati ikki qismdan iborat: Birinchi 24 oy ichida to'liq kafolat xizmati (to'liq xizmat o'z ichiga ta'mirlash ishlari va ehtiyot qismlarni oladi) va keyingi 12 oy ichida qisman kafolat xizmati ko'rsatiladi (bunda mijoz ehtiyot qismlari uchun ketgan harajatlarni o'z hisobidan qoplaydi, ishlab chiqaruvchi esa kafolat xizmati harajatlarini qoplaydi).

3. Kafolat muddati mahsulot iste'molchiga sotilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar mahsulot sotilgan kunni aniqlashning imkoni bo'lmasa, bu muddat mahsulot ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

4. Mahsulot xarid qilayotganingizda va foydalanishdan oldin uni foydalanish bo'yicha yo'riqnomasini diqqat bilan o'qib chiqishingizni so'raymiz. Shuningdek, kafolat talonining to'g'ri to'ldirilganligini tekshiring.

Tekshirish davomida siz xarid qilgan mahsulotning modeli nomi va seriya raqami kafolat talonidagi yozuv bilan bir xil bolishi shart. Ushbu talonga hech qanday o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritish mumkin emas. Aks holda, kafolat taloni yaroqsiz hisoblanadi va bepul servis xizmati amalga oshirilmaydi.

5. Mazkur mahsulot maishiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, murakkab texnikaviy tuzilishga ega.

Mahsulotdan foydalanish bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilib, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lsangiz, u sizga uzoq yillar davomida ishonchli xizmat qiladi. Mahsulotdan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan mexanik nosozliklar, shuningdek, mahsulotning ichki qismiga suyuqlik, hashorat, kemiruvchi va boshqa narsalar tushishiga yo'l qo'ymang. Xizmat muddati davomida mahsulotning model nomi va seriya raqami ko'rsatilgan yorliq yaxshi saqlanishiga etibor bering.

6. Mahsulotni o'rnatgan shaxs kafolat taloniga barcha kerakli ma'lumotlarni kiritganiqa ishonch hosil qiling.

7. Agar mahsulotdan foydalanish jarayonida siz uning ishlash xususiyatlari foydalanish bo'yicha yo'riqnomada bayon qilmaganlardan farqli hisoblasangiz, sotuvchi yoki mazkur kafolat talonida ko'rsatilgan servis va xizmatlar uchun yagona aloqa markazi telefon raqamiga yoki istalgan ro'yhatdan o'tgan rasmiy servis markaziga maslahat so'rab murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

#### **Kafolat shartlari**

8. Kafolat muddati mahsulot iste'molchiga sotilgan kundan boshlab hisoblanadi.

9. Kafolat taloni yo'qotilgan taqdirda mahsulotning orqa qismida ko'rsatilgan seriya raqami orqali kafolat muddati ishlab chiqarilgan sanadan boshlab belgilanadi.

10. Kafolat taloni taqdim etilmaganda yoki yaroqsiz kafolat taloni taqdim etilganda, bepul servis xizmati amalga oshirilmaydi. Bunday holatda servis markazi tomonidan kafolat muddati ishlab chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanishi va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun haq talab qilinishi mumkin.

11. Servis xizmati faqat O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan rasmiy servis-markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

12. Mahsulotdagi nosozlik kafolat qo'llanilmaydigan holatlar natijasida kelib chiqmagan bo'lsa, servis-xizmat ko'rsatish markazi mahsulotni kafolat muddati davomida bepul ta'mirlab beradi.

Diqqat: Kafolat taloni titul varag'i va qirqiladigan kuponda faqat sotuvchi muhri mavjud bo'lgandagina haqiqiydir.

13. Kafolat muddati davomida servis-xizmat ko'rsatish kafolat taloni taqdim etilgandagina servis xizmat ko'rsatish markazi tomonidan 10 ish kuni ichida amalga oshiriladi. Servis xizmat markazida zarur ehtiyot qismlar mavjud bo'lmaganda, ta'mirlash muddati qo'shimcha 10 kunga uzaytirilishi mumkin. Tamirlash uchun ketgan vaqt kafolat muddatiga qo'shib hisoblanmaydi.

14. Ishlab chiqaruvchi kafolat muddati mobaynida mahsulotning, shu jumladan, butlovchi qismlarning normal ishlashini ta'minlaydi.

15. Agar mahsulotdagi nosozlik bartaraf qilish uzoq muddatni talab qilsa, ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli mahsulot o'rniga unga ayni shunday markali yoki xususiyatlari undan kam bo'lmagan mahsulot berib turiladi.

16. Ayrim mahsulotlarga nisbatan servis xizmat ko'rsatish bilan bog'liq transport xarajatlari (mahsulotni servis markaziga olib kelish, olib borish va hokazo) iste'molchi (mijoz) tomonidan qoplanadi.

#### **Kafolat qo'llanmaydigan holatlar**

17. Quyida keltirilgan holatlarda texnik nosozlik kelib chiqqanda kafolat va bepul xizmat ko'rsatish amalga oshirilmaydi:

-Iste'molchi tomonidan mahsulotdan foydalanish, saqlash va transportda tashish qoidalari buzilishi natijasida;

-Uchinchi shaxslar harakati (yoki harakatsizligi) natijasida;

-iste'molchi yoki o'rnatuvchi ruxsat berilmagan konstruktiv va sxemotexnik o'zgarishlarni vakolatsiz shaxslar tomonidan kiritilishi va ta'mirlashi natijasida;

-Davlat Texnik Standartlari (ГОСТ, O'zDSt va boshqalar) bo'yicha ishlaydigan kabel tarmoqlar me'yorlaridan, shuningdek, kuchlanish darajasidagi tafovutlar va o'zgarishlar natijasida;

-Yengib bo'lmaydigan kuch tasiri (tabiiy ofatlar, yong'in, chaqmoq va hokazo) natijasida;

-Hayvonlar, kemiruvchilar va boshqa hasharotlar yetkazgan zarar natijasida;

-Mahsulotga o'rnatilgan plombalar buzilgan taqdirda;

-Foydalanish bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilganidan ko'p muddatda uzluksiz foydalanish natijasida;

-Mahsulotga kimyoviy vositalar tushishi, to'kilishi va boshqa xil ko'rinishda zarar yetkazishi natijasida;

-Mahsulot ustiga belgilangan me'yordan ortiq yuk qo'yish natijasida;

-Mahsulotni o'rnatish va undan foydalanishning tegishli qoidalarga rioya etmagan holda kelib chiqqan buzilishlarda;

-Vakolatli bo'lmagan shaxslar tomonidan mahsulot ko'rpusini ochish, tuzatish va modernizatsiya qilish natijasida kelib chiqqan buzilishlarda.

18. Maishiy texnika mahsulotlaridan tijorat maqsadlarida foydalanilganda bepul xizmat ko'rsatish muddati 6 oy etib belgilanadi. Agar mahsulotning qo'shimcha aksessuarlar va qismlarining sinishi aniqlab bo'lmaydigan sabablar, shuningdek, mahsulotdan foydalanish, saqlash va transportda tashish qoidalari buzilishi sababli kelib chiqqan bo'lsa, ularga kafolat asosida bepul servis xizmat ko'rsatilmaydi va qo'shimcha aksessuarlar almashtirilmaydi.

19. Bepul servis xizmati quyidagi xarajatlarni o'z ichiga olmaydi:

-Elektr tarmog'iga ulash shnurini almashtirish;

-Tashqi oynani almashtirish;

-Chiroq va plafonlarni almashtirish;

-Korpus detalini almashtirish;

-Mahsulot o'rnatilgan yoki foydalanilayotgan joyga mahsulotdan foydalanish tartibini tushuntirishga borish.



## Kafolat taloni


**Diqqat! Iltimos sotuvchidan kafolat taloni va qirqish kuponlarini to'liq to'ldirishni talab qiling**

<b>Mahsulot nomi</b>	
<b>Modeli</b>	
<b>Seriya raqami</b>	
<b>Sotilgan sana</b>	
<b>Sotuvchi korxonona</b>	
<b>Sotuvchi manzili</b>	
<b>Sotuvchining telefon raqami</b>	

Mahsulot tegishli qismlari birgalikda soz holda va foydalanish uchun yo'riqnoma bilan oldim.  
Kafolat shartlari va bepul servis xizmat ko'rsatish bilan tanishdim va unga rozilik beraman.

Sotib oluvchi imzosi

Sotuvchi korxonona muhri



Ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot

"BRANDO TECH" MCHJ

Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Istiqlol MFY, Anhor ko'chasi, 1 uy

**Servis markazi**  
**+99870-202-44-55**  
**+99898-272-44-55**

## BRANDO qirqish taloni "A"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonona muhri

---

## BRANDO qirqish taloni "B"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonona muhri

---

## BRANDO qirqish taloni "C"

Mahsulot nomi	
Model	
Seriya raqami	
Xarid qilingan sana	
Sotuvchi	

Sotuvchi korxonona muhri

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Servis markazining muhri

---

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Servis markazining muhri

---

## Servis markazi tomonidan to'ldiriladi

<b>Qabul qilingan sana</b>	
<b>Topshirilgan sana</b>	
<b>Buyurtmaning raqami</b>	
<b>Nosozlik xususiyati</b>	
<b>Xizmat ko'rsatgan xodim</b>	

Servis markazining muhri



**Yagona axborot markazi**  
**+998 70 202-44-55**  
**+998 98 272-44-55**